



MIGRENNI KLINIK BAHOLASH VA MRI YORDAMIDA
TASHXISLASH

Sharofova Charos

+998938002277

Toshkent Davlat tibbiyot Universiteti talabasi

Dolzarblik: Migren - bu tez-tez uchraydigan birlamchi bosh og'rig'i kasalligi bo'lib, unda ayollarda nomutanosiblik ustunlik qiladi. Tashxis odatda bemorning klinik tarixiga asoslanadi, boshqa patologiyalarni istisno qilish uchun og'ir yoki atipik ko'rinishlar uchun neyrovizual tekshiruvlar o'tkaziladi.

Migren dunyo bo'yicha eng keng tarqalgan bosh og'rig'i turlaridan biri bo'lib, taxminan 1 milliarddan ortiq odamni (taxminan 12–15% global aholi) ta'sir qiladi. Bemorlarning ko'pchiligi hayot sifatining pasayishi, ish va o'qish samaradorligining kamayishi bilan uchraydi. Shu sababli migrenni tezkor va aniq tashxislash, klinik baholash va MRI kabi metodlarni qo'llash dolzarb hisoblanadi.

Maqsad: Migrenli bosh og'rig'i bilan og'rikan bemorlar va miya magnit-rezonans tomografiyasi (MRT) natijalari o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish

Material va usullar: Tadqiqot 18–55 yosh oralig'idagi 50 nafar migren bilan og'rikan bemor ishtirokida o'tkazildi. Bemorlar nevrologiya bo'limiga takrorlanuvchi bosh og'rig'i shikoyati bilan murojaat qilgan.

Barcha bemorlarda tashxis klinik mezonlar asosida qo'yildi. Bosh og'rig'ining davomiyligi (4–72 soat), bir tomonlama pulsatsiyalovchi xarakteri, o'rtacha yoki kuchli intensivligi hamda fotofobiya, fonofobiya va ko'ngil aynishi kabi hamroh simptomlar baholandi.



Differensial diagnostika maqsadida barcha bemorlarga bosh miya magnit-rezonans tomografiyasi (MRT) o'tkazildi. Tekshiruv markaziy nerv tizimi, xususan bosh miyaning oq modda hududlari, frontal va parietal sohalarini baholash uchun amalga oshirildi. MRT tekshiruvi yotgan holatda, standart T1, T2 va FLAIR rejimlarida bajarildi.

Ushbu usulning afzalligi — organik patologiyalarni (o'sma, gemorragik jarayon, insult) istisno qilish, struktur o'zgarishlarni aniqlash va migrenni boshqa bosh og'rig'i turlaridan farqlash imkonini berishidir.

Natija. Tadqiqotda 50 nafar bemor o'rganildi va klinik baholash hamda MRI tekshiruvlari asosida kasallik 45 bemorda aniqlangan. Eng ko'p uchraydigan belgilar fotofobiya 35 bemorda, fonofobiya 38 bemorda, ko'ngil aynishi 30 bemorda va bir tomonlama pulsatsiyalovchi bosh og'rig'i 38 bemorda kuzatildi. MRI tekshiruvlarida 7 bemorda oq modda o'zgarishlari aniqlangan, sog'lom nazorat guruhi esa 5 bemordan iborat edi. Diagnostik tizim, klinik baholash va sun'iy intellekt algoritmlari yordamida bemorlarni migren va sog'lomlardan ajratish aniqligi 92 foizni tashkil etdi. Migren xurujlari o'rtacha 36 soat davom etgan va bemorlarning 40 foizida oyiga 15 kundan ortiq xurujlar kuzatilgan.

Xulosa. 50 nafar bemor ichida migren kasalligi 90% aniqlangan. Eng ko'p uchraydigan belgilar fotofobiya, fonofobiya, ko'ngil aynishi va bir tomonlama bosh og'rig'i bo'lgan. MRI tekshiruvlari organik patologiyalarni istisno qilishga yordam bergan. Klinika baholash va diagnostik algoritmlar birgalikda qo'llanilganda tashxis aniqligi oshadi.